


Asosiy kapitalga investitsiyalar

2020 yil yanvar-mart oylarida

Farg'ona viloyatida joriy yilning yanvar-mart oylarida 1 724,7 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 58,1 % i yoki 1 002,5 mlrd. so'm jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bolsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 41,9 % i yoki 722,2 mlrd. so'm moliyalashtirildi.


Yanvar-mart oylari davomida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar 119,1 mlrd. so'm o'zlashtirilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 73,8 % ni tashkil etdi.




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

2020 yil yanvar-mart Investitsiya va qurilish statistikasi bo'llimi

Markazlashgan moliyalashitirish manbalari hisobidan



Markazlashmagan moliyalashitirish manbalari hisobidan





FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

2020 yilning yanvar-mart oylarida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga 1 605,6 mld. soʻm investitsiyalar oʻzlashtirilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 108,2 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari boʻyicha tarkibi

	mld. soʻm	oʼsish surati, % da	jamiga nisbatan, % da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	1724,7	104,8	100,0
Respublika byudjeti	91,3	59,6	5,3
Tiklanish va taraqqiyot jamgʼarmasi	-	-	-
Suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʼarmasi	7,5	117,2	0,4
Oʼzbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	20,3	1,3 m	1,2
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʼlari	357,0	101,6	20,7
Toʼgʼridan-toʼgʼri xorijiy investitsiyalar	322,9	81,0	18,7
Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	203,5	-	11,8
Aholi mablagʼlari	338,2	113,4	19,6
Korxona mablagʼlari	384,0	101,1	22,3

2020 yil yanvar-mart Investitsiya va qurilish statistikasi boʼlimi



FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


Asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga,	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo`yicha (mlrd. so`m):						
		Respublika byudjeti	Korxona va tashkilotlarning o`z mablag`lari	Aholining o`z mablag`lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag`lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi
Viloyat jami:	1724,7	91,3	384,0	338,2	546,7	7,5	357,0	-
Farg'ona sh.	305,0	61,0	96,0	53,4	43,5	-	51,1	-
Qo'qon sh.	118,9	0,03	25,8	12,8	53	-	27,3	-
Quvasoy sh.	257,1	0,1	44,3	12,4	187,8	-	12,5	-
Marg'ilon sh.	64,4	0,0	20,4	15,1	0,3	-	28,6	-
Oltiariq	85,4	2,2	33,3	10,7	0,0	7,5	31,7	-
Qo'shtepa	97,8	0,2	22,6	11,1	60,9	-	3,0	-
Bag'dod	23,6	0,1	2,9	5,4	6,7	-	8,5	-
Buvayda	60,1	0,1	15,4	22,8	0,0	-	21,8	-
Beshariq	85,9	0,8	7,8	14,6	61,9	-	0,8	-
Quva	68,0	0,0	16,8	36,9	2,9	-	11,4	-
Uchko'prik	60,0	0,2	13,9	7,0	1,6	-	37,3	-
Rishton	28,5	0,2	11,4	3,9	0,1	-	12,9	-
So'x	6,5	0,6	3,7	2,2	0,0	-	0,0	-
Toshloq	36,9	0,00	3,2	16,6	0,1	-	17,0	-
O'zbekiston	164,3	5,3	20,2	22,3	73,0	-	43,5	-
Farg'ona t	55,8	2,2	12,6	3,7	11,1	-	26,2	-
Dang'ara	89,2	3,2	15,2	49,6	15,0	-	6,2	-
Furqat	71,2	0,1	9,4	26,5	28,7	-	6,4	-
Yozyovon	46,2	15,1	9,1	11,2	-	-	10,8	-

2020 yil yanvar-mart Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati




2020 yil yanvar-mart Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Viloyatda asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati 2019 yil mos davriga nisbatan: O'zbekiston tumanida kuzatilgan bo'lib, 4,3 martaga, Quvasoy shahrida 3,6 m, Qo'shtepa tumanida 2,5 m, Furqat tumanida 2,7 m, Dang'ara tumanida 1,8 m, Bag'dod tumanida 166,9 % ga ko'paygan. Investitsiya hajmini hududlarda yuqori bo'lgani asosan investitsiya dasturidagi loyihalarni amalga oshirilishi bilan izohlanadi.




Asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilishi (jami hajmga nisbatan ulushi % da)



Farg'ona viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ni tashkil etdi. Bu quyidagi investitsiya dasturidagi loyihalar bajarilishi bilan bog'liq.


- ("FARG'ONA YASIN QURILISH MOLLARI" mas'uliyati cheklangan jamiyati) Sement ishlab chiqarishni tashkil etish
- ("MODERNA CEMENT INDUSTRIES" mas'uliyati cheklangan jamiyati) Sement ishlab chiqarishni tashkil etish
- ("KVARTS" aksiyadorlik jamiyati) ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish maqsadida qumni qayta ishlash uchun dastgohini sotib olish.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 917,6 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 53,2 % ini tashkil etdi, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 744,6 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 43,2 %) va boshqa xarajatlarga 62,5 mlrd. so'm (3,6 %) o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarniñ texnologik tarkibi (mlrd. so'mda)



**Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish
tarkibi (% da)**



- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik quollantirish
- Boshqalar

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Ushbu yo'nalishdagi investitsiyalar hajmi 946,6 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 54,9 % ni tashkil etdi.

Mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik quollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 398,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 23,1 % ni tashkil etdi, 379,2 mlrd. so'm (22,0 %) boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	<i>2020 yil yanvar–mart</i>			
	<i>Jami investitsiyalar</i>		<i>shundan: xorijiy investitsiya va kreditlar</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>umumiylajmga nisbatan % da</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>umumiylajmga nisbatan % da</i>
Jami	1724,7	100,0	546,7	100,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	202,4	11,7	48,2	8,8
Tog'–kon sanoati	70,3	4,1	61,9	11,3
Qayta ishslash sanoati	733,6	42,5	394,2	72,1
Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash	25,0	1,4	6,0	1,1
Suv bilan taminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	9,6	0,6	-	-
Qurilish	60,6	3,5	14,3	2,6
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni tamirlash	102,0	5,9	-	-
Tashish va saqlash	52,0	3,0	-	-
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	22,4	1,3	-	-
Axborot va aloqa	27,0	1,6	20,8	3,8
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	10,1	0,6	-	-
Proffesional, ilmiy va texnik faoliyat	8,9	0,5	-	-
Ta'lim	57,7	3,3	1,0	0,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	40,8	2,4	-	-
Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar	223,8	13,0	-	-
Boshqa faoliyat turlari	78,5	4,6	0,3	0,1

2020 yil yanvar–mart Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan

investitsiyalar (mlrd.so'm)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori ko'rsatkichlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlandi: qayta ishslash sanoati jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 733,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 42,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 202,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,7 %, ulgurji va chakana savdo sohasida 102,0 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 5,9 %, turar – joy binolari qurilishida 223,8 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 13,0 % hamda qurilish sohasida 60,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 3,5 % i o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar


(mlrd. so'm)



Joriy davrda viloyatda xorijiy investitsiyalar hajmi 546,6 mlrd. so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 31,7 % i va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,8% ga o'sdi. Bunda O'zR hukumati kafolati ostida xorijiy investitsiyalar hajmi 20,3 mlrd. so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 1,2 % i va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 martaga o'sdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 322,9 mlrd. so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 18,7 %i va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,0 % ga o'sdi va qolgan 203,5 mlrd.so'm boshqa manbalar hisobidan o'zlashtirildi.



Obyektlarni ishga tushirish



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 255,3 ming kv.m, bo`lgan 1383 ta turar joy obyektlari yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo`lib, ulardan umumiy maydoni 177,4 ming kv.m. bo`lgan 1022 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan.

Foydalanishga topshirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng ko`pi Farg'ona tumanida 57,7 ming kv.m. bo`lgan 303 ta turar joylar, foydalanishga topshirilgan jami umumiy maydonning 22,6 % ni tashkil etdi. Keyingi o`rinlarda Dang'ara tumanida 31,6 ming. kv.m bo`lgan 178 ta turar joylar foydalanishga topshirilgan jami umumiy maydonning 12,4 % i, Farg'ona shahrida 32,6 ming. kv.m bo`lgan 105 ta turar joylar, Furqat, tumanida 27,7 ming. kv.m bo`lgan 168 ta turar joylar, foydalanishga qabul qilingan.



FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



**Farg'ona viloyat statistika
boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'lumi**

Aloqa telefoni: **0373 241-98-42**

2020 yil yanvar-mart Investitsiya va qurilish statistikasi bo'lumi